



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASINING QARORI

2022 y. "26" yanvar № 5

Tashish va aloqa xizmatlari tariflari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni 9-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4796-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, aloqa va kommunikatsiyalar sohasida tariflar o'zgarishini baholash amaliyotini xalqaro standartlar va tajribalar asosida yanada takomillashtirish maqsadida, Davlat statistika qo'mitasi **QAROR QILADI:**

1. Davlat statistika qo'mitasining 2018- yil 26- sentyabrdagi 16- sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tashish va aloqa xizmatlari narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom"ga ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin;
2. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais

B. Begalov

O'zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo'mitasining
2022- yil "26" yanvar dagi
5-son qaroriga
ILOVA

Tashish va aloqa xizmatlari tariflari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizomga (keyingi o'rinlarda – Uslubiy nizom) quyidagi tahrirda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin:

1. Uslubiy nizomning kirish qismi 4- xatboshidagi "Davlat statistikasi to'g'risida" so'zlari "Rasmiy statistika to'g'risida" so'zlariga, "Davlat statistika ishlari dasturi" so'zlari "Statistika dasturi" so'zlariga almashtirilsin;

2. Uslubiy nizomning 2- bandi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

"Tashish va aloqa xizmatlari ta'riflari indeksini aniqlash uchun ma'lumotlar bazasi bo'lib tanlangan korxonalar doirasida 12-narx (transport) "Transportda yo'lovchi va yuk tashish (uzatish) tariflari to'g'risida hisobot" va 12-narx (aloqa) "Aloqa xizmati tariflari to'g'risida hisobot" shakllari, shuningdek, 5-narx (iste'mol) blankasi "Tovar(xizmat)lar iste'mol narx(tarif)larini ro'yxatga olish so'rovnomasi" kuzatuv shakli asosida yo'lovchi tashish xizmatlari va aholi uchun aloqa xizmatlari tariflarining ro'yxatga olingan iste'mol narxlari to'g'risidagi ma'lumotlar hisoblanadi.";

3. Uslubiy nizomning 4- bandi quyidagi tahrirdagi 4- xatboshi bilan to'ldirilsin:

"Aloqa xizmatlari tariflarini ro'yxatga olishda xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan uslublarga muvofiq, shartli belgilangan tariflarning narx o'zgarishlarini hisobga olishga yo'l qo'yiladi."

4. Uslubiy nizomning "Foydalanilgan ma'lumotlar ro'yxati" quyidagi tahrirdagi band bilan to'ldirilsin:

"4. "Raqamli rivojlantirish o'lchamlari. 2020- yilda AKT narxlari tendensiyasi" // Xalqaro elektroaloqa birlashmasi // 2020- yil."